

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA  
MUHAMMADRIZO OGAIY G‘AZALLARINI O‘QITISHDA  
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

**Fayzullayeva Maftuna Odil qizi**

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti 2-bosqich magistranti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Muhammadrizo Ogahiy g‘azallarini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish va uning samarasi haqida fikrmulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** interfaol usul, faol o‘qish metodi, adabiyot darsligi (9-sinf)

Bugun adabiyot fanini o‘qitishda integrativ yondashuv, interfaol usullar ham ta’lim sifatini yuqori bosqichlarga olib chiqishda muhim faktorlardan bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, bugun xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati integrativ yondashuv konsepsiysi, uning mazmun-mohiyati, shakl-shamoyili, tamoyillari konsepsiysi, adabiyot o‘qitishda interfaol usullar kabi masalalarga bag‘ishlanganligini kuzatish mumkin. Yanayam aniqroq qilib aytganda, integrativ yondashuv, interfaol usullar ta’lim oluvchilarining ta’lim jarayonidagi faol ishtirokiga asoslangan (o‘quvchi ta’lim markazida turadigan muhitning yaratilishiga sabab bo‘ladigan), ularning muvaffaqiyatlari, ijodiy, tanqidiy fikrlashlariga, adabiyotga, badiiy asarga munosabatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladigan yondashuvlardan biridir. Bunday yondashuvda o‘quvchilarda adabiyot o‘qitishda fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro munosabatlari haqida tasavvur hamda fanga nisbatan qiziqish uyg‘onadi. Interfaol jarayon o‘quvchining avvaldan mavjud bilimlar yig‘indisiga bog‘liq bo‘lib, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, puxta bilimi matn mazmunini anglashda va tahlil qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday ta’lim shaklining foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- o‘quvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni o‘quvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- o‘quvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Biz quyida mumtoz adabiyotimizning yetuk namoyandalaridan Muhammadrizo Ogahiy ijodini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Umumiylar o‘rtalim maktablari darsliklariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Ogahiy ijodidan namunalar sifatida g‘azallar keltirilganligining guvohi bo‘lamiz. Maktab o‘quvchilari aynan mumtoz lirika namunalari, jumladan, g‘azal yod olish, uni tahlil qilish va ifodali o‘qish borasida biroz qiynaladi. Mana shu qiyinchiliklarni yengillashtirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga g‘azal janri xususiyatlari, uni yod olishning usullari haqida ham nazariy va amaliy yordam bersa, ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

O‘quvchidan g‘azal janrini tushunishi va yod olishi uchun quyidagilar talab etiladi:

- ✓ g‘azal janrining qanday janr ekanligini bilishi;
- ✓ lug‘atlar bilan ishlay olishi;
- ✓ aruz vaznini tushunishi;
- ✓ vazn haqida ma’lumot;
- ✓ misra, bayt, hijo, rukn, matla’, maqta, qofiya, radif tushunchalari;
- ✓ bahr, vazn, taqte’lar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- ✓ g‘azalni ifodali o‘qish qonun-qoidalarini bilishi;
- ✓ qanday badiiy san’atlar borligini bilishi.

**Faol o‘qish modeli** xorijda adabiyot darslarida keng qo‘llanilaniladigan usullardan biri bo‘lib, o‘quvchini turli janrlarga mansub badiiy asar olamiga olib kirishga, o‘quvchining asarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. **She’riy asarlar** bilan ishlashda faol o‘qish modelining o‘zgartirilgan variantini qo‘llash mumkin. Bu model quyidagi strategiyalarni o‘z ichiga oladi:

**Eshitish:** She’rni ovoz chiqarib o‘qing. She’rning qanday jaranglashiga va she’r ritmiga e’tibor bering. Shoir tovushlardan qanday foydalanganligiga, ular tinglovchiga qanday ta’sir qilishiga diqqat qiling.

**Tasavvur qilish:** She’r sezgi organlaringizga qanday ta’sir qilayotganini kuzating. She’rni o‘qish (tinglash) davomida nimalarni tasavvur qildingiz, nimalarni eshitdingiz, nimalarni his qildingiz?

**Reaksiya bildirish:** She’r sizga qanday ta’sir qildi? Xayolingizdan nima o‘ylar, ko‘nglingizdan nima kechinmalar o‘tdi? Qanday xotiralarni yodga soldi?

**Savol berish:** shoir nimalar demoqchiligin tahlil qiling. Bu qatorda (misrada, to‘rtlikda) nima haqda gap ketyapti? Shoir kimga (nimaga) murojaat qilyapti? Ushbu simvol (obraz) nimani bildiradi? Shoir nimaga ayrim so‘zlarni (misralarni) qaytaryapti?

**Aniqlashtirish:** Misralarni (to‘rtliklarni yoki butun she’rni) o‘z so‘zingiz bilan aytib bering.

**Talqin qilish:** She’r sarlavhasi she’rning mazmunini ochib berishga qanday xizmat qiladi? Shoir o‘quvchiga qanday asosiy g‘oyani yetkazmoqchi? She’rning har xil ma’nolari bo‘lishi mumkinmi?

Ushbu oltita strategiya asosida Ogahiyning darslikdagi barcha (“Qish”, “Navro‘z”, “Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsun”, “Ustina”) g‘azallarini tahlil qilish mumkin. Biz darslikdagi “Qish” va “Navro‘z” g‘azallarini tanlab oldik. Dastlab o‘qishdan oldingi (pre-reading) topshiriq uchun qish mavzusiga oid kichik suhbat tashkil qilinsa ham bo‘ladi. Bunda qish manzarasi tushirilgan suratlardan foydalansa bo‘ladi. Bu **mutolaaga tayyorlanish bosqichi** bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun o‘quvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin:

***Mutolaaga tayyorlanamiz***

*Qish siz uchun qanday fasl? Fasllar inson uchun noqulaylik tug‘dirishi mumkinmi? Fikringizni misollar bilan isbotlang.*

So‘ng g‘azallar o‘qilib, g‘azallardagi lug‘atlar bilan ishlanadi. So‘ng yuqoridagi savollar asosida g‘azallar tahliliga o‘tiladi. Bu **muhokama bosqichi** hisoblanadi.

**So‘ng qo‘srimcha quyidagi savol va topshiriqlar ham bajartirilsa bo‘ladi:**

1. G‘azalni o‘qing. Qofiyalarga e’tibor bering. G‘azal siz uchun qanday jaranglaydi?

2. Ikkinci misradagi holatni ko‘z oldingizga keltiring. Qanday manzaraniko‘rdingiz?

3. Uchinchi baytda shoir qanday badiiy san’atni qo‘llagan?

4. Beshinchchi baytda shoir qish borish-kelishdan mahrum qildi deganda nimani nazarda tutgan?

5. Oltinchi misra mazmunidan kelib chiqib, shoirning hamda u yashagan davrning iqtisodiy ahvoli haqida fikringizni bildiring va bu haqida tarix ustozingiz yordamida ma’lumotlar to‘plang.

6. G‘azalning g‘oyasini tushunishga yordam beradigan rasm chizing yoki hikoya tuzing.

***Loyiha***

Guruhlarda ishlang. Ushbu g‘azalnining asosiy g‘oyasini tushunishga yordam beradigan rasm chizing yoki hikoya tuzing.

Keyingi g‘azal “**Navro‘z**” radifli g‘azal.

*Mutolaaga tayyorlanamiz*

*Navro‘z so‘zining lug‘aviy ma’nosini bilasizmi? Navro‘z bayrami tarixi haqidachi? Ushbu bayramni eslaganingizda ko‘z oldingizda nimalar gavdalanadi?*

*Muhokama qilamiz*

1. G‘azalni ovoz chiqarib o‘qing. G‘azalning qanday jaranglashiga va g‘azal ritmiga e’tibor bering. Shoir tovushlardan qanday foydalanganligiga, ular tinglovchiga qanday ta’sir qilishiga diqqat qiling.

2. G‘azal sezgi organlaringizga qanday ta’sir qilayotganini kuzating. G‘azalni o‘qish (tinglash) davomida nimalarni tasavvur qildingiz, nimalarni eshitdingiz, nimalarni his qildingiz?

3. G‘azal sizga qanday ta’sir qildi? Xayolingizdan nima o‘ylar, ko‘nglingizdan nima kechinmalar o‘tdi? Qanday xotiralarni yodga soldi?

4. Shoir nimalar demoqchiliginini tahlil qiling.

Birinchi baytda nima haqda gap ketyapti? Ikkinci baytda shoir Navro‘zning kirib kelishini qanday tasvirlayapti? Uchinchi va to‘rtinchi baytlarda shoir qanday badiiy san’atlardan foydalangan? Beshinchi va oltinchi baytlar mazmunidan kelib chiqib, shoir yashagan davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida fikr bildiring. Sakkizinchi va to‘qqizinchi baytlar orqali shoir nimalarga ishora qilgan deb o‘ylaysiz?

5. G‘azalning mazmunini o‘z so‘zingiz bilan aytib bering.

6. She’r sarlavhasi she’rning mazmunini ochib berishga qanday xizmat qiladi?

7. Shoir o‘quvchiga qanday asosiy g‘oyani yetkazmoqchi?

So‘ng quyidagi **topshiriq** beriladi:

Tasavvur qiling, g‘azal asosida kichik sahna ko‘rinishi tayyorlamoqchisiz. Guruhlarga bo‘lining.

|         |                |   |
|---------|----------------|---|
| 1-guruh | Rassomlar      | Sahna ko‘rinishi uchun dekoratsiyalar (atrof-muhitni ko‘rsatuvchi rasmlar) chizing. |
| 2-guruh | Libos ustalari | Qahramonlar uchun kiyimlar chizing.   |
| 3-guruh | Bastakorlar    | Sahna ko‘rinishi uchun musiqa tanlang yoki bastalang.                               |

**So‘ng quyidagi topshiriq beriladi:**

| O‘xhatishga misol | Shaxs, narsa yoki holatning xususiyati |
|-------------------|--|
|                   |  |

Bugungi globallashgan texnika asrida o‘quvchi-yoshlarni yuqoridagi kabi zamonaviy usullar vositasida o‘qitish o‘zining samarasini berishi so‘nggi yillarda ko‘p bora o‘z isbotini topib kelmoqda. Ta’lim sohasida bu borada yanada chuqur izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, ta’lim sohasi ana shunday islohot, o‘zgarish va yangilanishlarga muhtoj ekanligi hech kimga sir emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019.
- Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. (An’anaviylikdan zamonaviylikka) Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2020.